	Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ 840 Суяров Хуршид Бахриддинович
	Oliy ta'limda sun'iy intellektni boshqarishda rivojlangan chet davlatlar tajribasidan foydalanish usullari 844 Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi
	Variativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari 852 Turapova Ra'no Barat qizi
	Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga og'zaki hisoblashni o'rgatish 857 Jurayeva Muhayyo Nematillayevna
	Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari 861 Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.
	Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish 865 Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich
	Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari 868 Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna
	The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives) 873 Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli
	Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish 877 Yuldasheva Gulsanam Arken qizi
	Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов 881 Бахриева Шахноза Давроновна
	Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики" 886 Равшанова Иноят Эркиновна
	Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge" 889 Тагаева Тамара Баходировна
	Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi 892 D. S. Zokirova
	O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari 895 Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich
	Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari 898 Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi
	Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish 901 Ortiqova Zulfiya Nurmuhammedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi
	Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari 905 Rustemov Muxamed Biysenbayevich
	The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture 908 Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
<i>Salixova Muhayyo Shakirovna</i>	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
<i>Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna</i>	
Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
<i>U. M. Utbasarova</i>	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i>	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
<i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umumdaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongini shakllantirish.....	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinovna</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirqul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process.....	1014
	Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
	The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English.....	1019
	Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi	
	Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati.....	1025
	G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omaxon Rahmonberdi qizi	
	Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari.....	1028
	Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari.....	1031
	Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish.....	1034
	Iminova Z. B.	
	Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati.....	1038
	Inayatova Nargisa Nishonboyevna	
	O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1044
	Kalmuratovna Venera Sultanova	
	Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari.....	1049
	Kamola Abdullayeva	
	O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari.....	1052
	Karimov Orif Obloqul o'g'li	
	Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati.....	1055
	Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
	Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers.....	1060
	Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri.....	1063
	Makulov Shuxratjon Zokirovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar.....	1067
	Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish.....	1072
	Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi.....	1075
	Mansurova Umida Mansur qizi	
	Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari.....	1081
	Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
	Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati.....	1084
	Murodov Nozimjon Olimjonovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari.....	1088
	Nafasova Jamila Turg'un qizi	
	Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish.....	1093
	Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi.....	1097
	Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
	Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli.....	1101
	O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
	Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari.....	1104
	Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
	Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari.....	1108
	Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
	Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari.....	1112
	Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
<i>Parmunkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna</i>	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
<i>O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova</i>	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
<i>Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .	1131
<i>Rahmatova Barnogul Karimjonovna</i>	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
<i>Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
<i>Rahmonova Dilafroz Baxronjon qizi</i>	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
<i>Roziqova Malika Olimovna</i>	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
<i>Sattorov Boburbek Zokirovich</i>	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
<i>Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova</i>	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish.....	1156
<i>T. Seydemetov</i>	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching.....	1161
<i>Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna</i>	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.....	1165
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li</i>	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
<i>Utambetova Arzayim</i>	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
<i>Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li</i>	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
<i>Xuramova Farangiz Uchqun qizi</i>	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
<i>Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna</i>	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
<i>Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova</i>	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
<i>Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li</i>	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
<i>Пак Светлана Викторовна</i>	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
<i>Сагиндиқов Алишер Алеуатдинович</i>	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
<i>Ширбачеева Гульчехра Шакировна</i>	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
<i>Яхшиева Мехринигор Шавкатовна</i>	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
<i>Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich</i>	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
<i>Bannayev Qosimjon Qodirjonovich</i>	
Malaka oshirish jarayonida ta’lim sifatini oshirish masalalari.....	1223
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari	1226
<i>Berdiyeva Muhabbat Meliyevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozish ko‘nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishda modellashtirishning ahamiyati	1229
<i>Eshbekova Gulbahor</i>	

STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	1233
<i>G'afforova Xurriyat Yangiboyevna</i>	
Kimyo fani o'rganuvchilari ongida moddalarning hosil bo'lish jarayonining mazmun-mohiyatini ularning genetikasiga asoslab tushuntirish.....	1238
<i>Jabbarova Dilafro'z Bo'riyevna</i>	
Application of Artificial Intelligence-Based Learning Activities for Developing Critical Thinking in Teacher Training	1242
<i>Masharipova Nargiza Otakhonovna, Xudayberganova Madinabonu Qudratovna</i>	
Yuqori malakali darvozabonlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati.....	1246
<i>Maxmudov Azamjon Muxtorovich</i>	
Multimediali elektron vositalar asosida axborot texnologiyalari fanini o'qitishda STEAM ta'lim metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1250
<i>Patidinova Dildoraxon Salimjon qizi, Yo'lchiyev Shaxriyor Xusanovich</i>	
Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilishga qiziqtirish.....	1254
<i>Pirniyazova Sholpan Oteniyazovna</i>	
Texnologiya fani o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirish metodikasi	1259
<i>Raxmatov A'zam Ashur o'g'li</i>	
O'quvchilarning shaxsiy karyerasini rejalashtirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	1262
<i>Raxmatova Sevara Abdulloyevna, Sharapova Hilola Dusham qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion va kreativ faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachi pedagogik mahoratining o'rni	1268
<i>Sattorova Maftuna Abdug'affor qizi</i>	
Interactive Methods and Activities in Teaching Foreign Languages	1272
<i>Sayfutdinova Nilufarxon Soyibjonovna</i>	
Nutq o'stirishda yozma ishlardan foydalanishga oid pedagogik shart-sharoitlar	1276
<i>Sharipova Sarvinoz Sayid qizi</i>	
Talabalarda integrativ yondashuv asosida muloqot madaniyatini rivojlantirishning afzalliklari.....	1280
<i>Usmonova Mohizoda Avazjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlanishda oilaning ijtimoiy faoliyati	1283
<i>Xomidova Dilorom Abduraxmonovna</i>	
Tarbiya jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish metodikasi.....	1286
<i>Yavkochdiyeva Dilafuz Egamqulovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish samaradorligi	1289
<i>Yuldasheva Xusnidaxon Jumanazar qizi</i>	
Идейно-художественные особенности публицистики Ш. Рашидова и их влияние на формирование диалога культур Узбекистана и России	1293
<i>Суярова Айнур Ибодуллаевна</i>	
Axborot texnologiyalari fanida talabalarining bilish mustaqilligini rivojlantirishda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi.....	1296
<i>Kilichev Nurulla Abbosovich</i>	
Bolaning nutqiy rivojida oilaviy va ta'lim muhitining ahamiyati.....	1300
<i>Toshmurodova Xalima Allaberdiyevna</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	1303
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Zamonaviy o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar va nutqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari.....	1308
<i>G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna</i>	
Формирование профессиональной компетентности будущих воспитателей дошкольных организаций на основе технологии "Сибборд": педагогические условия.....	1310
<i>Нумонжонova Фарангиз Комиловна</i>	

TARBIYA JARAYONIDA O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Yavkochdiyeva Dilafroz Egamqulovna

Qashqadaryo viloyati PMM Pedagogika,
psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasi dotsenti v/b.,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish metodikasi haqida yoritilgan. Unda vatanparvarlik tushunchasining ilmiy-metodologik tahlili, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning mohiyati, zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Vatan tuyg'usi, yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik, e'tiqot, buyuk ajdodlarimiz, ma'naviy meros, milliy qadriyatlar, Vatanni asrash, fidoiylilik, yurt kelajagi.

Abstract: This article examines methods for fostering patriotism in students during their education. It presents information on the scientific and methodological analysis of the concept of patriotism, the essence of fostering patriotic feelings in young people, and the importance of nurturing youth in the spirit of devotion to the Motherland in the modern educational process.

Key words: patriotism, youth education, patriotism, faith, our great ancestors, spiritual heritage, national values, preserving the Motherland, selflessness, future of the country.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика формирования патриотизма у студентов в процессе обучения. Представлены сведения о научно-методическом анализе понятия патриотизма, сущности формирования патриотических чувств у молодёжи, а также о значении воспитания молодёжи в духе преданности Родине в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: патриотизм, воспитание молодёжи, патриотизм, вера, наши великие предки, духовное наследие, национальные ценности, сохранение Родины, самоотверженность, будущее страны.

KIRISH

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan buyuk davlat sifatida shakllanishi, jamiyat hayotining barcha sohalarida tubdan islohotlar o'tkazilishi ta'lim-tarbiya tizimining butunlay yangilanishiga olib keldi. Ma'lumki, har bir jamiyatning ongli qatlami o'zining kelajagi bo'lgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi uchun qayg'uradi, g'amxo'rlik qiladi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev bir guruh harbiy askarlar bilan uchrashuvda - "Vatanni sevish - ulug' fazilat. Yoshlarimizni ana shunday fazilatli qilib tarbiyalashimiz kerak. Buning uchun siz kabi mag'rur, baquvvat yigitlar namuna bo'lishi zarur. Yoshlar bilan tez-tez uchrashib turishi, ularni milliy iftixor, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga hissa qo'shishi kerak"- deb bu borada qilishimiz lozim bo'lgan ishlar haqida aniq vazifa va ko'rsatmalarni berib o'tdilar. Ta'lim sohasidagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad xalqimiz ongi va shuurida saqlanib kelayotgan vatanga muhabbat tushunchalarini yosh avlodga singdirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, mamlakatimiz kelajagini belgilay oladigan barkamol hamda vatanparvar shaxsni shakllantirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mustaqil O'zbekistonning milliy mafkurasi xalqimiz ming yillar davomida yaratgan, asrab-avaylab kelayotgan ilmiy bilim xazinalariga, boy qadimiy merosiga asoslanadi. Chunki, ota-bobolarimiz hayot tajribalari natijasida yaratgan o'git va pandnomalarida, dunyoviy bilimlarida vatanni asrash, ulug'lash kabi insonparvarlik g'oyalari



mavjudki, ular nafaqat bugungi kundagi, balki kelajakdagi avlodlar uchun ham ahamiyatli va qadrlidir. Ayniqsa, o'zbek xalqining faxri va g'ururi hisoblangan Shiroq, To'maris, Muqanna, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va Amir Temur kabi vatanparvar, vatan uchun jonini ayamagan insonlarning hayot yo'li va faoliyatini o'rganish hamda vatanparvarlik maktabi tarbiyasidan o'rnak olishni yo'lga qo'yish bugungi davr talabidir.

Yosh avlod ongiga Vatan nima ekanligini kengroq targ'ib qilish, inson uchun Vatanning yagona ekanini anglatish ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifasidir. Chunki ma'naviy kamol topgan insonlargina barkamol jamiyat qurishlari mumkin. Jumladan, o'zbek xalq pedagogikasida barcha davrlar uchun kerak bo'ladigan ilg'or fikrlar borki, bular bugungi taraqqiyotimiz uchun ham qimmatli qadriyat hisoblanadi. Ayniqsa, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabilarning millat, yurt taraqqiyotiga qo'shgan hissasi katta ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

Vatan tushunchasining ilmiy, pedagogik, falsafiy, badiiy, jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, 2006-yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da vatan tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: Kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i; turar joy, boshpana, maskan, uy sifatida talqin etilgan.¹

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da esa, vatan tushunchasiga shunday ta'rif keltiriladi: Vatan – kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmui.

Vatan ona kabi muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg'usi, mas'uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi.² Vatan sha'nini har narsadan ustun qo'ya bilgan, tili, dini, tarixi, milliy qadriyatlari bilan faxrlana oladigan shaxsgina O'zbekistonning taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi.

Qadimgi ajdodlarimiz ham vatan tuprog'ini muqaddas bilganlar. Ular vatanning har bir qarich yeri uchun jangu jadallar qilib, qon kechganlar. Rivoyat qilishlaricha, O'g'izxonning kuchli dushmanlaridan biri unga qarshi urush boshlash uchun turli bahonalar izlaydi, turli talablar qo'ya boshlaydi. Birinchi bo'lib undan eng yaxshi ko'rgan otini so'raydi. O'g'izxon xalqining behuda qoni to'kilmasligi uchun sevimli otidan voz kechadi. O'rtadagi vaziyatni yanada keskinlashtirish uchun xonning jig'iga tegish maqsadida ikkinchi marta dushman hukmdor xondan sevimli xotinlaridan birini berishni so'raydi. Mamlakat oqsoqollari surbet xonga qarshi urush boshlashni talab qiladilar. Bu safar ham behuda qon to'kishni istamagan O'g'izxon, sevimli xotinidan voz kechadi. Va nihoyat, raqib podsho O'g'izxon davlatiga qarashli parcha yerni in'om etishni so'raydi. Oqsoqollar xonga yerni dushman podshoga berishni maslahat beradilar. Shunda O'g'izxon quyidagi so'zlarni aytadi: "Vatan yolg'iz bizning mulkimiz emas. Mozorda yotgan otalarimiz va endi tug'ilajak avlodlarimizning bu muborak tuproqda haqlari bordir. Vatandan ozgina bo'lsa ham, bir qarich bo'lsa ham yer bermakka hech bir kimsaning haqqi yo'qdir" deya O'g'izxon dushmanga qarshi urush e'lon qiladi va g'alaba qozonadi.³

U.Mahkamov "Axloq-odob saboqlari" kitobida vatan tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Vatan – har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota-ona, aka-uka, opa-singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi. Ona-Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o'zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi. Bu aziz tuyg'uni ona allasi parvarish etadi, voyaga yetkazadi".⁴

TAHLIL VA NATIJALAR

Vatan tuyg'usi haqida gapirar ekanmiz, avvalo, uning insonda mavjud psixologik his-tuyg'u ekanligini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Vatan tushunchasini pedagogik nuqtai nazardan o'rganganda esa insonda mavjud bo'lgan bilish faoliyatining umumiylikdan xususiylikka tomon boradigan fikr yuritish nuqtai nazaridan yondashmoq lozim: demak, vatanning umumiy tushuncha ekanligi – bu insoniyat uchun yer kurrasining o'ziga makon etgani bo'lsa; millatning paydo bo'lishi va qaysi millat qayerni vatan deb bilishi esa bilish faoliyatining xususiy yo'lini belgilaydi.

Vatan, vatanparvarlik so'zlari doimo biri-ikkinchisini to'ldirishi, ifodalashini inobatga olib, "vatanparvarlik" tushunchasining mazmuni, mohiyatini anglab olish lozim. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da: - "Vatanparvarlik - kishilarning ona-yurtiga, o'z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijti-

1 O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". T., "Davlat ilmiy nashriyoti". 2006, 444-bet.

2 O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., "Davlat ilmiy nashriyoti", Tom 2, 2001, 395- b.

3 O'g'izxondan qolgan mulk. T., "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1995, 106- bet.

4 Маҳкамов У. Ахлоқ-одоб сабоқлари. Т., "Фан", 1994, 29- б.

moiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi".⁵

A. Erkayevning "Ma'naviyat – millat nishoni" kitobida vatanparvarlik tuyg'usi haqida quyidagicha fikr bildirilgan: – "Vatanparvarlik" – eng avvalo, mustaqillikni mustahkamlashga ijobiy hissiy munosabatdir. Vatanparvarlik, shuningdek, e'tiqod sifatida tegishli tushunchalar, qarashlar, g'oyalar, ideallardan ham tarkib topadi. Vatanparvarlik minglab, millionlab xalq tomonidan istiqlolni mustahkamlashni, rivojlantirishni, uni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kengaytirish zaruriyatining asosiy tamoyillarini to'g'ri tushunish, istiqlol manfaatlarini shaxsiy, guruh, sinfiy, mahalliy-mintaqaviy manfaatlardan ustun qo'yishdir".

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat darajasidagi masalalardan bo'lganligi bois, bunday maqsadlarga aniq rejalashtirilgan yo'l xaritalarida belgilangan vazifalardan iborat ishlarni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Milliy Vatanparvarlik haqida so'z borganda, bu o'zbek xalqiga xos bo'lgan iymon, insof, mehr-muhabbat, oqibat, shavqat, or-nomus, ona yurtiga, o'z eliga sadoqat ahloqiy ma'naviy qadriyatlar, g'oyalar, qarashlar yig'indisi tushuniladi. Ta'lim muassasalarida yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'limining asosiy mazmunini tashkil etadi. Vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishda O'zbekistonning davlat ramzlari bayroq, gerb, madhiya, o'zbek tili, Konstitutsiya va boshqa aynan millatga, shu zaminga xos bo'lgan qadriyatlar, tuyg'ular, fazilatlar o'tkazilayotgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda o'z aksini topmog'i lozim.

Ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi va ularning shaxsini har tomonlama rivojlantirish muhim vazifa bo'lib, bu vazifalar o'quvchilarda barcha qobiliyatni o'sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Pedagoglar tomonidan ilg'or g'oyalarni o'rganish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish bilan bir qatorda, tarixiy mavzularni zamonaviy ruhda tushuntirish o'g'il va qizlarda g'oyaviy e'tiqodni ma'naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo'lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta'sir ko'rsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlikni shakllantirish avvalo oilada ota-ota namunasi, bobo-buvilar o'giti-dan boshlanib, ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarida davom etadi. Taraqqiyot davrini boshdan kechirayotgan mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida xizmat qilish uchun albatta mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan, milliy qadriyatlarimizning qadriga yeta oladigan, milliy g'urur va iftixorga ega bo'lgan, vatanga sadoqatli yoshlarni shakllantirish pedagogik zaruratga hisoblanadi. Xususan, bu masala pedagoglar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Demak, vatanparvarlik tuyg'usi nasldan naslga o'tadigan, tug'ma his-tuyg'ular jamlanmasi emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonining mahsulidir.

Vatanparvarlik vatan boyliklari-yu, go'zal tabiatidan faxrlanishgina emas, balki uni yanada mukammalroq his qilish, shu zamin uchun ter to'kish, xalqining farovon hayoti uchun o'z manfaatidan yurtdoshlari manfaatini yuqori qo'yish, Vatan himoyasiga shay turish, xalq qadriyatlarini kelajak avlodlarga meros qilib qoldirishda o'z hissasini qo'shish bilan namoyon bo'ladigan xatti-harakatlar majmuasidir. Shu bilan birga vatanga e'tiqod vatanparvarlikni to'ldirib turuvchi tushuncha bo'lib, uni mustahkamlab boruvchi dunyoqarashning bir bo'lagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". T., "Davlat ilmiy nashriyoti". 2006, 444-bet.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., "Davlat ilmiy nashriyoti", Tom 2, 2001, 395- b.
3. O'g'izxondan qolgan mulk. T., "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1995,106- bet.
4. Маҳкамов У. Ахлоқ-одоб сабоқлари. Т., "Фан", 1994, 29- б.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.- T., "Davlat ilmiy nashriyoti", Tom 2, 2001, 395- b.
6. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo'jayev A.A., Yavkochdiyeva D.E., Keldiyorova M.G'. Tarbiyaviy ishlar metodikasi//O'quv qo'llanma.:Toshkent. "Vorish-nashriyot", 2020, -263 b.
7. Yavkochdiyeva D.E.Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash//Havo Hujumidan Mudofaa Qo'shinlari va Harbiy Havo Kuchlari Xabarnomasi. Qarshi-2022,55-59-b.

⁵ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.- T., "Davlat ilmiy nashriyoti", Tom 2, 2001, 395- b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.